


Erdonabiy ibn Abdurahimbiy



Erdonabiy ibn Abdurahimbiy

(? – 1762 yil)

(1751-1752; 2-marta – 1753-1762)

Ming sulojasidan bo'lgan Qo'qon xoni. Abdurahmon Qo'qonda olti oylik hukmronligidan so'ng xonlik taxtiga o'tirgan. Uning hukmronligi davrida (1751-1762) xonlikning qudrati ortgan. U O'sh, O'zganni bo'ysundirgan. 1758-1759 yillarda esa Xitoy tomonidan zabit etilgan sharqiylar Turkiyaga ham harbiy yurish uyuشتirgan. Shu tariqa, Erdona davrida Qo'qon xonligi g'arbda Buxoro, sharqda Xitoy bilan tengma-teng kurash olib bora olgan davlatga aylangan. U ham tez orada taxtdan tushirilib, uning o'rniqa Bobobek o'tqaziladi. Abdulkarimxon zamonida Qaynar tomonidan qalmoqlar bostirib kelib, sulh tuzib, Muhammad Rahimxonning o'g'li Bobobekni garov tariqasida olib ketgan edilar. Qalmoqlar Bobobekni xonlikka ravo ko'radilar. U Qo'qonda bir yil hukmronlik qiladi. Bobobek Beshariqqa borganda, u yerda o'ldiriladi va taxtga yana Erdona o'tqaziladi.

Uning davrida ko'p urushlar bo'ladi, mehnatkash xalqning ahvoli o'g'irlashadi. Erdona 12 yil hukmronlik qilgan. Undan so'ng Qo'qon xonligi taxtiga Shodibekning o'g'li Sulaymonbek o'tqaziladi.

Erdona Qo'qon xonligini ichki tomonidan mustahkamlashga ko'p urungan siyosatchi hisoblanadi. Shuningdek u Farg'ona vodiysining o'ziga xos darvozasi hisoblanmish Xo'jandni xonlik ixtiyoriga kiritishga obdon harakat qilgani, ammo buxorolik kuchlar bunga yo'l qo'yaganliklari ma'lum.

O'sha zamon tarixchisi ta'rifi bilan aytganda, Erdona zamonida xonlik qudrati ancha yuqori ko'tarilib, vodiyya tinchlik va farovonlikka erishilgan. Erdona Qo'qon xonligining sharqida joylashgan O'sh, O'zgand kabi yerlarni ham bo'ysundirishga erishgan siyosatchilardan. U bu bilan cheklanmasdan, 1758-1759 yillari Xitoyning hukmron sulolasi bo'lmish **sinlar** (1664-1911) tomonidan zabt etilgan Sharqiylar Turkistonda ham o'z siyosatini yurgizishga urinib, u yerga harbiy yurishlar uyushtirib turgan.

2023-11-05 19:21:50